


TARIX

1. Ogahiyning qaysi asarida Xorazmning 1846-1855-yillardagi tarixi bayon etilgan?
- A) "Firdavs ul-iqbol"
 B) "Eng go'zal tarix"
 C) "Savodi ta'lim"
 D) "Sulton voqealarining majmuasi"
2. Eron shohi mamlakatda inglizlarning ta'sirini kamaytirish maqsadida qaysi davlat bilan hamkorlikni kuchaytirdi? (XX asrning 20-30 yillari)
- A) Germaniya B) AQSh C) SSSR
 D) Turkiya
3. "Davlat VI asr o'rtalarida tashkil etilgan. 555-yilda Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan hududlarni egallagan. Oltoy davlatning markazi etib belgilangan". Yuqoridagi ma'lumotlar qaysi davlat haqida ekanligini toping.
- A) Xioniyalar davlati B) Kidariylar davlati
 C) Eftaliylar davlati D) Turk xoqonligi
4. Quyidagilardan janubiy slavyanlar guruhiga kiruvchi xalqni belgilang.
- A) polyaklar B) ukrainlar C) bolgarlar
 D) chexlar
5. Monopolistik kapitalizm bosqichida AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan hindularga fermerlik faoliyati bilan shug'ullanishga imkon beruvchi qonunning amalga oshmay qolish sabablarini toping.
- 1) qora tanlilar va hindular o'rtasida kelib chiqqan kelishmovchilik; 2) hindularga ajratilgan yer maydonlarining unumsizligi; 3) hindularning AQSh hukumatidan Vashingtondan yer berilishini talab qilishi; 4) fermerlik faoliyati bilan shug'ullanish hindularning jamoaviy hayot tarziga zid kelishi
- A) 2, 4 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 1, 3
6. Amudaryo bo'limining qaysi hududlarida Rossiyadan ko'chib keltirilganlar yashar edi? (XIX asr oxirida)
- A) Petro-Aleksandrovsk, Nukus qishlog'ida
 B) Chimboy, Biybozorda
 C) Qo'ng'iro't bekligi, Xo'jaylida
 D) Qalliko'l, Mang'it qishlog'ida
7. Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.
- A) Rossiya podshosi Ivan IV – A.Byorns elchiligi – Buxoro amiri Haydar
 B) Rossiya hukmdori Pyotr I – Florio Beneveni elchiligi – Xiva xoni Sherg'oziyxon
 C) Rossiya imperatori Nikolay I – V.Perovskiy harbiy ekspeditsiyasi – Qo'qon xoni Mir Mahmudxon
 D) Rossiya imperatori Nikolay II – Ch.Stoddart elchiligi – Xiva xoni Said Muhammadxon
8. 1920-yil yanvarda Toshkentda o'rnashib olgan Yosh buxoroliklarning so'l qismi kim boshchiligida "Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi" ni tuzishgan?
- A) Abdurauf Fitrat
 B) Mahmudxo'ja Behbudiy
 C) Obidjon Mahmudov D) Fayzulla Xo'jayev
9. Fors podshosi Doro I tomonidan qurdirilgan "Shoh yo'li" degan savdo yo'li qaysi shahardan boshlangan?
- A) Bobildan B) Nineviyadan
 C) Persopoldan D) Frakiyadan
10. Quyidagi qaysi ma'lumotlar Chandragupta (Qadimgi Hindiston) haqida emas?
- 1) mil. avv. X asrda Afg'oniston va Pokiston hududlarini yagona davlatga birlashtirdi; 2) Hindistonda yunon-makedon qo'shinlariga qarshi kurashga sardorlik qildi; 3) Maurya davlatining asoschisi; 4) yangi din – budda diniga asos soldi
- A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3
11. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?
-
- A) 2, 4 B) 1, 6 C) 1, 3 D) 3, 5

12. "Qirol Lir" asari muallifini toping.
 A) *Migel de Servantes*
 B) *Leonardo da Vinchi* C) *Uilyam Shekspir*
 D) *Tomas Mor*
13. 1919-yil 18-yanvardan 1920-yil 21-yanvargacha bo'lib o'tgan Parij tinchlik konferensiyasida hal qiluvchi rol o'ynagan "Katta uchlik" davlatlari (hukumat) rahbarlarini aniqlang.
 1) Devid Lloyd Jorj; 2) Nevill Chamberlen;
 3) Jorj Klemanso; 4) Eduard Dalad'e; 5) Vudro Vilson; 6) Gerbert Guver
 A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 2, 4, 6 D) 1, 4, 6
14. Buyuk Britaniya qachon Gongkong orolini bosib olgan?
 A) *Birinchi afyun urushi yakunida*
 B) *"Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" siyosati e'lon qilingach*
 C) *Taypinlar qo'zg'oloni bostirilgach*
 D) *Ikkinchi afyun urushi yakunida*
15. 1832-yil Pekinda imzolangan Qo'qon-Xitoy shartnomasiga ko'ra, ...
 1) Xitoy Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qildi;
 2) Qo'qon xonligi Sharqiy Turkiston hisobiga o'z chegaralarini kengaytirish huquqiga ega bo'ldi; 3) Qo'qon xonligi aholisi Xitoy hududi orqali Hindiston bilan savdo qilish huquqiga ega bo'ldi; 4) Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berildi; 5) Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulklar evaziga Qo'qon xonligiga tovon to'landi; 6) Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi o'rta osiyolik savdogarlar to'laydigan bojlarni yig'ib olish huquqi Xitoy hukumatiga berildi.
 A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 2, 3, 6
16. Buxoroda XIX asrda hukmronlik qilgan hukmdorlarni belgilang.
 1) amir Olimxon; 2) amir Nasrullo; 3) amir Haydar; 4) amir Muhammad Rahim;
 5) Doniyolbiy otaliq; 6) amir Muzaffar.
 A) 2, 3, 6 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 6
17. Quyida nomlari keltirilgan shaxslardan qaysi biri qadimgi yunon faylasufi **hisoblanmaydi**?
 A) *Demokrit* B) *Aflotun*
 C) *Kvint Kurtsiy Ruf* D) *Aristotel*
18. O'ttiz yillik urush 1648-yilda qaysi sulh shartnomasining imzolanishi bilan tugagan?
 A) *Nishtadt sulhi* B) *Vestfal sulhi*
 C) *Parij sulhi* D) *Kuchukqaynarji sulhi*
19. Quyida nomlari keltirilgan hukmdorlardan qaysi biri Qadimgi Misrni bosib olgan?
 A) *Kambiz II* B) *Ashoka* C) *Gilgamish*
 D) *Kir II*
20. XVI asr o'rtalarigacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G'arbiy Yevropa bozorlari bilan aloqalari qaysi davlat yerlaridan o'tardi?
 A) *Usmonlilar davlati* B) *Ispaniya*
 C) *Rossiya* D) *Germaniya*
21. 2002-yil AQSh prezidenti Eronni "yovuzlik tayanchi" mamlakatlari qatoriga qo'shib, terrorizmni moliyashtirishda aybladi va uni xalqaro izolatsiya qilishga harakat qildi. Ammo bu harakat quyidagi qaysi davlatlar tomonidan ma'qullanmadi?
 1) Fransiya; 2) Hindiston; 3) Pokiston;
 4) Germaniya; 5) Buyuk Britaniya;
 6) Ozarbayjon.
 A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 2, 3, 6 D) 1, 4, 5
22. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy markazlar hisoblangan shaharlarni aniqlang.
 1) O'zgan; 2) G'uzor; 3) Xo'jayli; 4) Sherobod
 A) 1, 4 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 3
23. Nuqtalar o'rniga mos keladigan javobni toping. O'rta asrlarda Xitoy:
 1) Chju Yuan-Chjan – Min sulolasi;
 2) Xubilay – Yuan sulolasi; 3) Li Yuan – ...
 A) *Tan sulolasi* B) *Sin(Chin) sulolasi*
 C) *Sun sulolasi* D) *Xan sulolasi*
24. XIX asrning 80-yillarida Italiyaning Germaniya bilan yaqinlashuviga nima sabab bo'lgan?
 A) *Italiya da'vo qilayotgan Shimoliy Afrika davlatlari hududini Fransiya egallay boshlashi*
 B) *Fransiyaning Rossiya bilan ittifoq tuzishi*
 C) *Fransiyaning Angliya bilan yaqinlashuvi*
 D) *hokimiyatga germanparast J.Jolitti hukumatining kelishi*

25. Quyida sanab o'tilganlardan qaysilari Yevropada Reformatsiya davri(jarayoni)ga aloqador?
 1) "1524-1526-yillardagi Buyuk dehqonlar urushi"; 2) "chartistlar harakati"; 3) "Iso jamiyati"; 4) gospitalyerlar ordeni; 5) royalistlar; 6) "95 tezislar"
 A) 1, 4, 6 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 6 D) 2, 3, 5
26. 1921-yil 12-noyabrdan 1922-yil 6-fevralgacha to'qqiz davlat vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan Vashington konferensiyasida quyidagi qaysi davlatlar asosiy rol o'ynagan?
 1) AQSh; 2) Fransiya; 3) Buyuk Britaniya; 4) Italiya; 5) Yaponiya; 6) Xitoy
 A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 4, 5

27. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.



- a) "Mehnatni ozod qilish" guruhi tuzildi;
 b) Fransiya bilan urush olib bordi;
 c) mamlakatda konstitutsiya joriy etildi;
 d) San-Stefanoda Usmonli davlati bilan shartnoma imzoladi; e) Avstriya ustidan g'alaba qozondi; f) Avstriya zulmiga qarshi kurashda Fransiya bilan shartnoma tuzdi
 A) I-d, e; II-c, f; III-a B) I-d, f; II-a, e; III-b
 C) I-b, f; II-c, e; III-a D) I-a, d; II-c, e; III-b

28. O'rta asrlarda xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat)da bunyod etilgan me'moriy inshootni aniqlang.



A) Laax monastiri B) Xori monastiri C) Kordovadagi masjid D) Dojlar saroyi

29. 1940-yilgi "Uchlar pakti"ga qo'shilgan davlatlar xaritada qaysi raqamlar ostida berilgan?



A) 5, 6 B) 3, 4 C) 1, 4 D) 1, 2

30. Quyidagi jadvalda voqea va uning natijasi o'zaro **nomuvofiq** bo'lgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	1917-yilning 26 - 28-noyabrda Qo'qon shahrida Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyining o'tkazilishi	Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi
2.	1618-1648-yillardagi "O'ttiz yillik urush"	Yevropada siyosiy gegemonlikning Fransiyaga o'tishi
3.	Falangachilar 1936-yil 18-iyul kuni butun Ispaniya bo'ylab harbiy to'ntarish boshlashi va ularga "Xalq fronti"ning qarshi chiqishi	Fuqarolar urushining boshlanishi
4.	1911-yildagi Sinxay inqilobi	Xitoyda Sin sulolasining ag'darilishi
5.	Karl VIII ning 1491-yilda Bretan gersogining qizi Annaga uylanishi	Kale dengiz portining Fransiyaga qo'shib olinishi

A) 1, 2 B) 3, 4 C) 3, 5 D) 1, 5